



Cho'lpon ijodini matnshunoslik yuzasidan tahlili

Saydullayeva Fotima

Namangan davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (adabiyotshunoslik)

yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Muallif maqolani yaratar ekan Cho'lpon she'riyatidagi so'zlarni o'rganishga e'tibor bilan yondashgan. Cho'lpon lirikasining "Adabiyot parchalari" she'riy to'plami tarkibiga kirgan "Kurash" she'rining matni xususida so'z yuritadi. Maqola "Kurash" she'ri matnini boshqa to'plamlar bilan solishtirgan holda hozirgi kunda muqobil variantini ifodalaganligi bilan qimmatlidir.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, "Uyg'onish", "Adabiyot parchalari", tinish belgilari, so'z shakllari, shakliy o'xshashlik.

Ma'lumki, har bir ijodkorning o'z uslubi, o'ziga xos yo'nalishi bo'ladi. Kimningdir asarini tushunish kitobxonga murakkablik qilsa, kimningdir sodda tili orqali bayon etilgan asari barchaga birdek tushunarli bo'ladi. Shular jumlasidan ham Cho'lpon ijodi o'ziga xos rang-barang, soddalik va ravonlikni, fikr va tuyg'ular samimiyligi bilan alohida o'rin tutadi. Shu sababli ham Cho'lpon ijodini o'rganish, uning lirikasidan o'rin olgan "Kurash" she'rining til xususiyatlariga e'tiborimizni qaratamiz. Bu o'rinda shoirning "Kurash" she'rini boshqa to'plamlardagi nusxalarini qiyoslab ko'raylik.

1.1 Matnshunoslik asoslari:

a) grafik shakllantirilishi:



1. Mazkur she'r "Uyg'onish" (1922) to'plamida 3 band 11 misradan iborat. Ulardan 1-2-bandlar 4 misra, 3-band 3misradan iborat.
2. "Adabiyot parchalari" (1926) to'plamida 3band 11 misradan iborat. Ulardan 1-2-bandlar 4 misra, 3-band 2misradan iborat.
3. "Yana oldim sozimni" (1991) to'plamida 3 band 11 misradan iborat. Ulardan 1-2-bandlar 4 misra, 3-band 3 misradan iborat.
4. Asarlar 3 jildlikning 1-jildi (1994) 3 band 11 misradan iborat. Ulardan 1-2-bandlar 4 misra, 3-band 3 misradan iborat.
5. "Go'zal Turkiston" (1997) to'plamida 3 band 11 misradan iborat. Ulardan 1-2-bandlar 4-misra, 3-band 3 misradan iborat.
6. Asarlar 4 jildlikning 1-jildi (2016) 3 band 13 misradan iborat.
7. "Binafsha" (2021) to'plamida 3 band 11 misradan iborat. 1-2-band 4 misra, 3-band 3 misradan iborat.

"Kurash" she'rining grafik shakllantirilishi 7 manba asosida o'rganildi. Bunda "Uyg'onish" (1922), "Adabiyot parchalari" (1926), "Yana oldim sozimni" (1991), Asarlar 3 jildlikning 1-jildi (1994), "Go'zal Turkiston" (1997), Tanlangan asarlar 4 jildlikning 1-jildi (2016), "Binafsha" (2021) to'plamlarda she'rning grafik shakllantirilishi bir xil, ya'ni bandlarga ajratilgan.

b) tinish belgilarining ishlatilishi:

She'rning nomi "Kurash". "Uyg'onish" to'plamida she'rning sarlavhasidan so'ng nuqta qo'yilgan. Qolgan barcha manbalarda sarlavhadan so'ng tinish belgisi ishlatilmagan.

1-band:

1- misra: **"Baqirguvchi, o'kirguvchi bir tovush"**. Ushbu misrada uyushiq bo'laklar mavjudligi uchun **vergul (,)** ishlatilgan. Uyushiq bo'laklar orasida vergul ishlatiladi shuning uchun ham bu yerda tinish belgisi to'g'ri qo'llangan.



2- misra: *“Boturlarning jon so`ragan tovushidir”*. Barcha to`plamlarda misra oxiriga **nuqta(.)** qo`yilgan. Nuqta belgisi to`g`ri qo`llangan. Chunki tugallangan darak gap oxiriga nuqta qo`yiladi.

3- misra: *“Yiqitguvchi, ag`darg`uvchi qo`zg`alish”*. Barcha to`plamlarda uyushiq bo`laklar orasida **vergul (,)** qo`llanilgan.

4- misra: *“Yaqindagi zo`r kurashning boshidir”*. Barcha nusxalarda misra oxiriga **nuqta (.)** qo`yilgan.

2- band:

1-misra: *“Tentaklardek topar yerin bilolmay”*. “Uyg`onish” (1922), “Yana oldim somni” (1991), Asarlar 3 jildlikning 1-jildi (1994), “Binafsha” (2021) to`plamlarida misra oxirida **vergul (,)** qo`llanilgan. “Adabiyot parchalari (1926), “Go`zal Turkiston” (1997), Tanlangan asarlar 4jildlikning 1-jildi (2016) nashrlarida tinish belgi qo`llanilmagan.

2-misra: *“Unda-bunda o`zni urgan dushmandir”*. “Uyg`onish” (1922) top`lamida **urgan** so`zidan so`ng **ikki nuqta (:)** qo`llanilgan. “Adabiyot parchalari” (1926) to`plamida esa xuddi shu joyda **tire (-)** qo`llanilgan. Qolgan to`plamlarda ushbu so`zdan so`ng tinish belgi ishlatilmagan. Shuningdek, “Uyg`onish” (1922), “Adabiyot parchalari” (1926), Asarlar 3 jildlikning 1-jildi (1994), “Go`zal Turkiston” (1997) kabi to`plamlarda misra oxirida **nuqtali vergul (;)** qo`yilgan. “Yana oldim sozimni” (1991), Tanlangan asarlar 4 jildlikning 1-jildi (2016), “Binafsha” (2021) to`plamlarida esa misra oxirida nuqta qo`llanilgan.

3- misra: *“Keng yurakda tura olmay, sig`olmay”*. Ushbu misrada uyushiq bo`laklar, ya`ni **tura olmay** va **sig`olmay** bo`laklari orasida **vergul (,)** ishlatilgan. Bu to`g`ri negaki uyushiq bo`laklar orasida vergul qo`llaniladi. Barcha to`plamlarda ham vergul ishlatilgan. Shuningdek, “Uyg`onish” (1922), “Adabiyot parchalari” (1926), “Yana oldim sozimni” (1991), “Go`zal Turkiston” (1997), Tanlangan asarlar 4 jildlikning 1-jildi (2016) nashrlarida misra oxirida hech qanday tinish belgi ishlatilmagan. Asarlar 3 jildlikning 1-jildi (1994) va “Binafsha” (2021) to`plamlarida esa misra oxirida **vergul (,)** qo`llaniladi.



4-misra: *“Toshib ketgan yo`qsildagi iymondir”*. “Uyg`onish (1922) to`plamida ushbu misrada **toshib ketgan** so`zidan so`ng **ikki nuqta (:) qo`llangan**. “Adabiyot parchalari” (1926) to`plamida esa toshib ketgan so`zidan so`ng **tire** qo`llaniladi. Qolgan barcha to`plamlarda esa ushbu so`zdan so`ng hech qanday tinish belgi ishlatilmagan. Shuningdek, barcha to`plamlarda misra oxirida **nuqta (.)** ishlatilgan.

3-band:

1-misra: *“Ulug`, qattiq ag`darguvchi bir kurash”*. “Adabiyot parchalari” (1926), “Go`zal Turkiston” (1997) to`plamlarida **ulug, qattiq** so`zlaridan so`ng **vergul** qo`llanilgan. Negaki, gapning qaysi bo`lagi birdan ortiq bo`lsa vergul qo`llaniladi. “Uyg`onish” (1922) to`plamida esa **ulug`** so`zidan so`ng **nuqta** ishlatiladi. “Yana oldim sozimni” (1991), Asarlar 3 jildlikning 1-jildi (1994), Tanlangan asarlar 4 jildlikning 1-jildi (2016), “Binafsha” (2021) to`plamlarida faqat **ulug`** so`zidan so`ng **vergul (,)** qo`llanilgan. Shuningdek, “Adabiyot parchalari” (1926) to`plamida misra oxirida **nuqtali vergul** ishlatiladi. “Uyg`onish” (1922) to`plamida misra oxirida nuqta ishlatiladi. Qolgan to`plamlarda esa misra oxiriga **vergul (,)** qo`llanilgan. Bu o`rinli deb o`ylaymiz, chunki qo`shma gaplar orasida vergul qo`llaniladi.

2-misra: *“Yo bor bo`lish, yo yo`q bo`lish”*. Barcha to`plamlarda **yo bor bo`lish** so`zlaridan so`ng **vergul (,)** ishlatilgan. Chunki bog`langan qo`shma gaplar orasida vergul qo`llaniladi. Shuningdek, “Adabiyot parchalari” (1926) to`plamida misra oxiriga **ko`p nuqta (...)** ishlatilgan. “Yana oldim sozimni” (1991) to`plamida misra oxiriga nuqta qo`yiladi. Qolgan barcha to`plamlarda esa misra oxiriga ikki nuqta qo`yilgan.

3-misra: *“Yo`q yarash”*. Ushbu misra esa “Adabiyot parchalari” (1926), “Uyg`onish” (1922), Asarlar 3 jildlikning 1-jildi (1994), “Go`zal turkiston” (1997) to`plamlarida misra boshida **tire** qo`yiladi va misra oxirida esa **undov (!)** va **ko`p nuqta (...)** qo`yilgan. Tanlangan asarlar 4 jildlikning 1-jildida faqat misra oxirida undov qo`yilganini ko`rish



mumkin. “Yana oldim sozimni” (1991), “Binafsha” (2021) to`plamlarida esa yo`q so`zidan so`ng tire ishlatilgan va misra oxirida undov qo`llaniladi.

v) so`z va so`z shakllarinning yozilishi:

Barcha to`plamlarda she`r nomi “Kurash” tarzida yozilgan.

1-band

1-misra: “Adabiyot parchalari” da **baqirg`** باقر غوى so`zi “Uyg`onish” to`plamida chaqirg`uchi tarzda ifodalangan. Davr til xususiyatiga ko`ra ikkala manbada ham **guvchi** qo`shimchasi **g`uchi** غوى bo`lib v tovushi tushib qolgan va g tovushi g` tarzda ifodalangan. “Binafsha” to`plamida baqirg`uvchi deb beriladi. Qolgan to`plamlarda esa chaqirguvchi deb berilgan. Shuningdek, **o`kirkuvchi** so`zi ham “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida davr til xususiyatiga ko`ra **o`kirkuchi** tarzda berilgan. Qolgan to`plamlarda esa **o`kirkuvchi** deb ifodalangan.

2-misra: “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida **botirlarning** so`zi davr til xususiyatiga ko`ra **boturlarning** باتورلارنىڭ tarzda ifodalangan. Qolgan to`plamlarda esa **botirlarning** deb beriladi. Shuningdek, “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida **so`ragan** so`zi davr til xususiyatiga ko`ra **so`rag`on** سوراغان tarzda yozilagan. “Binafsha” to`plamida esa so`rag`an tarzda berilgan. Qolgan to`plamlarda esa so`ragan deb berilgan. “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida tovshidir so`zi **tovushidir** تاۋۇشىدېر deb beriladi. Qolgan to`plamlarda esa **tovshidir** deb berilgan. Bizningcha tovshidir deb berilgani o`rinli. Negaki she`rning shu holatda ohangdorligi buzilmaydi.

3-misra: “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” **yiqitg`uchi** يېقىتغۇچى va **ag`darg`uchi** اغدەر غۇچى so`zlaridagi g` tovushi qolgan to`plamlarda g tarzda ifodalangan. Shuningdek, g`uchi qo`shimchasidagi v tovushi davr til xususiyatiga ko`ra tushib yozuvda namoyon bo`lmaydi. Yana bir so`z qo`zg`alish so`zi ham “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish”, “Go`zal Turkiston”, Asarlar 3 jildlikning 1-jildi, Tanlangan asarlar 4 jildlikning 1-jildi to`plamlarida



qo`zg`olish قۇزغالش deb beriladi. Qolgan “Yana oldim sozimni”, “Binafsh” to`plamlarida esa **qo`zg`alish** deb berilgan.

4-misra: “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida **yaqindag`i** ياقنداغى deb beriladi. Bunda gi so`z yasovchi qo`shimchasining eskirgan variant g`i tarzda ifodalangan. Qolgan to`plamlarda **yaqindagi** deb beriladi. Bizningcha hozirgi o`zbek tili imlo qoidalarini uchun yaqindagi deb yozish o`rinlidir.

2-band:

1-misra: “Yana oldim sozimni” to`plamida *Tentaklardek borar yerin bilolmay* misrasidagi **yerin** so`zi o`rnida **bir ne** so`zi qo`llangan. Qolgan barcha to`plamlarda shakily o`xshashlik aynan qayd etilgan.

2-misra: “Adabiyot parchalari” (1926) to`plamida **unda-bunda** بۇندا - بۇندا so`zlari o`rnida **unga- bunga** tarzda beriladi. Ya’ni o`rin-payt kelishigi *-da* qo`shimchasi o`rnida jo`nalish kelishigi *-ga* qo`shimchasi ifodalangan. Shuningdek, **urgan** so`zi “Adabiyot parchalari” (1926), “Uyg`onish” (1922) to`plamlarida davr til xususiyatiga ko`ra **urg`on** عۇرغان deb beriladi.

3-misra: Barcha to`plamlarda shakliy o`xshashlik aynan qayd etilgan.

4-misra: “Adabiyot parchalari” (1926), “Uyg`onish” (1922) to`plamlarida **ketgan** so`zi **ketkan** كېتكان deb beriladi. Ushbu so`zdagi *-gan* zamon qo`shimchasi *-kan* deb beriladi va bu davr til xususiyatiga ko`ra to`g`ri hisoblangan. “Binafsha” (2021) to`plamida ham ketkan deb berilgan. Qolgan to`plamlarda esa ketgan deb ifodalanadi. “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida **yo`qsildagi** so`zi ham davr til xususiyatiga ko`ra **yo`qsuldag`i** يوقسولداغى deb beriladi va “Go`zal Turkiston”, Asarlar 3 jildlikning 1-jildida ham xuddi shunday **yo`qsuldagi** deb beriladi. Qolgan to`plamlarda **yo`qsildagi** deb beriladi. Shuningdek, “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” **imon** so`zi **iymon** ئېماندر deb yozilgan.



Qolgan barcha to`plamlarda imon deb beriladi. Bizningcha ikkalasi ham to`g`ri bir ma`noni ifodaydi.

3-band:

1-misra: “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida **qattiq** so`zi davr til xususiyatiga ko`ra **qattig** قاتتغ deb beriladi. Qolgan barcha to`plamlarda qattiq deb berilgan. Shuningdek, ag`darguvchi so`zi “Adabiyot parchalari”, “Uyg`onish” to`plamlarida **ag`darg`uchi** اغدارغوحى deb berilgan. Bu albatta davr til xususiyatiga xosdir. Qolgan to`plamlarda esa ag`darg`uvchi deb beriladi.

2-3-misra: Barcha to`plamlarda shakliy o`xshashlik aynan qayd etilgan.

1.2. She`rning qiyosiy-tanqidiy matn. “Adabiyot parchalari” to`plamidagi “Kurash” she`ri asl nusxadagi matni.

Kurash

Baqirg`uchi, o`kirguchi bir tovush

Boturlarning jon surag`on tovushidir.

Yiqitg`uchi, ag`darg`uchi qo`zg`olish

Yaqindag`i zo`r kurashning boshidir.

Tentaklardek borar yerin bilolmay

Unga-bunga o`zni urg`on – dushmandir;

Keng yurakda tura olmay, sig`olmay



Toshib ketkan yo`qsuldag`i iymondir.

Ulug`, qattig`, ag`darg`uchi bir kurash;

Yo bor bo`lish, yo yo`q bo`lish...

-Yo`q yarash!...

1921-yil. 8-mart. Toshkent.

Hozirgi o`zbek tilining orfografiya qoidalariga moslashtirilgan holda qilingan va biz ham maqbul deb topgan she`rning qiyosiy-tanqidiy matni.

Kurash

Baqirguvchi, o`kirguvchi bir tovush,

Boturlarning jon so`ragan tovshidir.

Yiqitguvchi, ag`darguvchi qo`zg`alish,

Yaqindagi zo`r kurashning boshidir.

Tentaklardek borar yerin bilolmay,

Unga-bunga o`zni urgan dushmandir.

Keng yurakda tura olmay, sig`olmay,

Toshib ketgan yo`qsildagi iymondir.



Ulugʻ, qattiq agʻdargʻuvchi bir kurash,

Yo bor boʻlish, yo yoʻq boʻlish...

Yoʻq – yarash!...

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, Choʻlponning sheʼrlari turli toʻplamlarda nashr etilganda davr til xususiyatlaridan kelib chiqib hozirgi kun til xusuiyatlariga muvofiq keladigan muqobil variantini koʻrsatib oʻtdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi asoslari. D. Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. Adabiyotshunoslik lugʻati. D. Quronov va boshqalar. –T: “Akademnashr”, 2010
3. “Adabiyot parchalari” Oʻzbekiston davlat nashriyoti Toshkent-1926.
4. Asarlar III jildlik. Choʻlpon. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1993. (O. Sharafiddinov tahriri ostida)
5. Asarlar IV jildlik. Choʻlpon. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
6. “Goʻzal Turkiston” – Toshkent “Maʼnaviyat” 1997.
7. H. Gʻoziyev. Oʻzbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. T: “Fan”, 1979
8. N. Mahmudov va boshqalar. Oʻzbek tilining punktuatsiya qoidalari. –T., “Oʻzbekiston”, 2015.B.54.)
9. N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari.-T: “Oʻzbekiston”, 2008. B.396.
10. N. Karimov. Choʻlpon. –T: “Sharq”, 2003.
11. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. –T: “Sharq”, 2004



12. O`zbek tilining izohli lug`ati. "Ozbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. –T. 2006
13. "O`zbek tili va adabiyoti" jurnali. 1967, 6-son
14. Qosimov B va boshqalar. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti-T: "Ma`naviyat", 2004.B.425
15. "Uyg`onish" Cho`lpon. – Toshkent. 1922.
16. "Yana oldim sozimni" Cho`lpon. – Toshkent: "G`afur G`ulom", 1991.
17. Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev. O`zbek tilining imlo lug`ati. T: "O`qituvchi", 1995
18. Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 3- kitob, .T-2009.
19. Dilmurod Quronov. "Mutolaa va idrok mashqalari" – Toshkent "Akademnashr" 2013